


# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

### O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“Kiritdi”

O'zbekiston davlat  
san'at va madaniyat  
instituti rektori

N.B.Sayfullayev

“DE 06” 2024-y

“Kelishildi”

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va  
innovatsiyalar vazirligi



“DE 06” 2024-y

“Tasdiqlayman”

O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi



“DE 06” 2024-y

### KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

60210100 – Texnogen san'at: kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi ta'lif  
yo'nalishi uchun  
(sirtqi)

1. Ovoz rejissorligi mahorati fanidan
2. Akustika asoslari fanidan

Dastur O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2024-yil \_\_\_\_\_ -sonli majlis bayoni.

**Tuzuvchilar:**

**D.Mirsaidova**

- “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasi dotsenti v.b.

**Sh.Amanmuradov**

- “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasi dotsenti

**Taqrizchilar:**

**M.Ubaydullayev**

- Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati kafedrasi dotsenti, s.f.n.,

**Sh. K. Adilov**

- O‘zMTRK “Respublika Teleradiomarkazi” DM, ovoz yozish xizmati boshlig‘i

## **Kirish**

60210100 – Texnogen san’at: kino, televide niye va radio ovoz rejissyorligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni dasturi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida shakllantiriladi va kirish imtihonlari unga muvofiq o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha kirish imtihonlari, har bir ixtisoslik uchun ta’kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha imtihon o‘tkazilishining ketma-ketligi, institut qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi va har yili qabul qilish qoidalar shakllantiriladi.

60210100 – Texnogen san’at: kino, televide niye va radio ovoz rejissyorligi bakalavrat ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga kirayotgan abituriyentlarning ovoz rejissyorligi sohasi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlari sinovdan o‘tadi. Bunda ular sohaning tarixiy rivojlanishi, texnologiyalari va amaliy jarayonlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi kerak.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy “Ovoz rejissyorligi mahorati” va “Akustika asoslari” fanlaridan ovoz rejissyorligiga oid ijodiy ishlarni bajaradilar.

## **Fanning maqsadi va vazifalari**

60210100 – Texnogen san’at: kino, televide niye va radio ovoz rejissyorligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishga tayyorlash bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning ovoz rejissyorligi ixtisosligining asosiy hisoblangan “Ovoz rejissyorligi mahorati”, “Akustika asoslari” fanlaridan amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan (fonogramma tahlili) ijodiy suhbat jarayonida ovoz rejissurasiga oid vazifalarni bajaradilar.

## **“Ovoz rejissyorligi mahorati” fani bo‘yicha**

“Ovoz rejissyorligi mahorati” fanidan kirish imtihonida abituriyent og‘zaki javob berishi kerak. Savol-javob keng doiradagi savollar bo‘yicha o‘tkazilib, abituriyentning fikrlashi, bilim doirasi, qiziqishi, kasbiy tasavvuri, ovoz rejissyorligi san’ati tarixi,

hozirgi rivojlanayotganlik bosqichi, ovoz yozib olish jihozlarini bilishi va ishlata olish qobiliyati tekshiriladi.

Suhbat jarayonida jahon va o'zbek kinematografiya namoyondalari ijodi, kino san'atidagi yuksak asarlar, tasviriy va boshqa san'at turlari, jahon va o'zbek adabiyotlariga oid savollar ham beriladi.

- kino san'atining, ovoz rejissyorligi kasbining paydo bo'lish tarixi bilishi;
- musiqa janrlarini bilishi;
- ovoz rejissyorligining turlarini bilishi;
- ovoz yozish jihozlarini turlarini bilishi;
- musiqiy cholg'ular turlarini bilishi;
- Respublikada faoliyat olib borayotgan ovoz rejissyorlari haqida bilishi;
- musiqiy cholg'u asboblarining turlari tushunchaga ega ekanligi.

### **“Akustika asoslari” fani bo'yicha**

- ovoz rejissyorligi akustikasi asoslari nazariy tushunchalari;
- tovushning fizik xossalalarini bilish;
- eshitishning dinamik diapazoni;
- mikrofonlarni, ularning asosiy texnik xususiyatlarini;
- akustika va uning turlari;
- absorbentlar haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

### **Abiturient bilimiga qo'yiladigan talablar**

**“Ovoz rejissyorligi mahorati”** fanidan abituriyent tovush xususiyatlari va xossalalarini, ovoz yozish va chiqarish anjomlarini, zamonaviy kompyuter texnologiyalarini, ovoz yozish va uni qayta ishlash uchun mo'ljallangan kompyuter dasturlarini, mikrofonlar va ularning turlarini, miksher pultlarining turlarini, raqamlashtirish moslamalari va ularning turlarini, analog va raqamli tovushni qayta ishlash vositalarini, tovush kuchaytiruvchi moslamalar va ularning turlarini, aranjirovka qilish usullarini, musiqiy cholg'ular ularning tembrlarini, tovush qabul qilish va

chiqarish usullarini, zamonaviy elektr cholg'ularni, akustika xossalarini, tovush to'lqinlari va ularning tarqalish xususiyatlarini haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

**"Akustika asoslari"** fanidan abuturiyentlar akustika bo'limlari, turli tovushlarning akustik xususiyatlari, fizika va elektronika asoslari, umumiy akustika, musiqiy akustika, arxitektura akustikasi va elektro akustika bo'yicha tushuncha, ovoz yoziş studiyalarning tavsiflari va akustik jihozlash, musiqiy cholg'u asboblarining turlari va ularning akustik xususiyatlari umumiy tushunchalarini bilishi kerak va musiqiy qobiliyatini to'g'ri kuylash, eshitish qobiliyatini tekshirish orqali aniqlanadi.

### Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:

#### "Ovoz rejissyorligi mahorati" fani boyicha

T/r	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Ijodiy suhbat	12
2.	Abituriyentning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining san'at va madaniyatga oid farmon va qarorlari haqida tushunchasi	10
3.	Mantiqiy mulohozasi, dunyoqarashi (siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy bilimlar darajasi )	12
4.	Musiqiy va vizual xotira	14
5.	Ovoz rejissyorligi kasbi haqidagi tushunchasi	14
6.	Eshitish va xotira qobiliyati	11
7.	Shaxsiy fikr	10
8.	Mustaqil ijodiy ish	10
<b>Jami:</b>		<b>93</b>

#### "Akustika asoslari" fani bo'yicha

T/r	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Fonogrammalarni tahlil qilishi	13
2.	Akustika bo'limlari	10
3.	Turli tovushlarning akustik xususiyatlari	10
4.	Tovushlarning asosiy fizik xususiyatlari	10
5.	Musiqiy cholg'u asboblarining turlari va ularning akustik xususiyatlari	10
6.	Tovush balandligi yoki pastligi	10
<b>Jami:</b>		<b>63</b>

## **Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi**

60210100 – Texnogen san’at: kino, televide niye va radio ovoz rejissyorligi yo‘nalishi hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda yakka tartibda yarim akademik soat vaqt davomida ovoz rejissyorligi mahoratidan ijodiy hamda suhbat imtihonini topshiradi. Kasbiy (ijodiy) imthonlar maxsus qurollar bilan jihozlangan auditoriyalarda bo‘lib o‘tadi.

Fan bo‘yicha “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasidan yuqori malakali professor-o‘qituvchilar jalg qilinadi.

## **Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay’atiga natijalar e’lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmuni faqat o‘zining ballari haqida bo‘lsagina qabul qilinadi lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

## **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari:**

1. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017 - yil 16 - yanvar, №11.
2. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017.
3. Sh.M. Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017.
4. Sh.M. Mirziyoyev Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017.
5. 2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI.
6. Sh.Amanmuradov, D.Mirsaidova. Ovoz rejissyorligi mahorati. O'quv qo'llanma. Toshkent 2018. –123 b.
7. Sh. Ch. Amanmuradov. Musiqa va shovqinlar bezagi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2023. –134 b.
8. A.Mirzayev. Ovoz kuchaytirish apparaturasi va xavfsizlik texnikasi. Toshkent, 2013.–80 b.
9. Гущин В.Н., Насыров М.З. Оборудование студии и системы звукозаписи. Учебное пособие. Ташкент. 2004. –72 ст.
10. Meerzon Б.Я. Акустические основы звукорежиссуры – Учебное пособие. М. 2004. –72 ст.
11. Севашко А. В. Звукорежиссура и запись фонограмм. М., 2004.–432 ст.
12. Хмыров А., Аманмурадов Ш. Компьютерные технологии звукозаписи. Учебное пособие. Ташкент 2021. –128 ст.